

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHCHANOVA MAVJUDA XUDAYOROVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ MEDIADISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Eshchanova Mavjuda Xudayorovna

O‘zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning lingvokulturologik
xususiyatlari..... 3

Eshchanova Mavjuda Khudayorovna

Linguocultural Features of Euphemisms in Uzbek and English Media
Discourse..... 27

Эшчанова Мавжуда Худаёровна

Лингвокультурологические особенности эвфемизмов в медиадискурсе
узбекского и английского языков..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 57

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ESHCHANOVA MAVJUDA XUDAYOROVNA

**ЎZBEK VA INGLIZ MEDIADISKURSIDAGI EVFEMIZMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2026

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5846 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining www.karsu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qaniyazova Jupargul Orinbayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Norboyev O'ktam Saparbayevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «18» mart soat. 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25; e-mail: karsu_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 469 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «28» fevral kuni tarqatildi.
2026-yil «27» fevral dagi №.9 raqamli reestr bayonnomasi.



[Signature]
M.S. Qudaybergenov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

[Signature]
J.E. Seytjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kutubi, filologiya fanlari nomzodi, professor

[Signature]
G.A. Kurbaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda antroposentrik yondashuvning kuchayishi, axborot maydonining kengayishi, ommaviy kommunikatsiyaning turli shakllarda rivojlanishi evfemizm hodisasini yangi zamonaviy paradigmalarda asosida o‘rganishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, evfemistik birliklarning mediadiskurs doirasida qo‘llanishi nafaqat til estetikasi, balki jamiyatdagi madaniy, axloqiy, diniy va ijtimoiy qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston axborot maydonining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlar va yangiliklar platformalarida so‘z tanlash madaniyati muhim ahamiyat kasb etayotgani ham evfemizmga oid tadqiqotlarga ehtiyojni oshirmoqda.

Dunyo tilshunosligida evfemizm til hodisasi sifatida jamiyatdagi tabu, axloqiy ‘yor, siyosiy to‘g‘rilik, madaniy sezgirlik kabi ko‘plab omillar bilan bog‘liq lib, ularning mediamatnlarda ifodalanish shakli va tarjima jarayonidagi auekvatligi dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, o‘zbek va ingliz mediadiskursida shakllangan evfemistik birliklarni lingvokulturologik jihatdan chog‘ishtirish orqali xalqlar dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, madaniy modeli haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois mazkur mavzu zamonaviy lingvokulturologiya, pragmalingvistika, tarjimashunoslik va mediatilshunoslik kabi fanlar kesishmasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizda tilshunoslik sohasida turli tillardagi lingvokulturologik hodisalarni chog‘ishtirma tahlil qilish, ularning tarjima jarayonidagi o‘ziga xosliklarini aniqlash va nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar tobora dolzarblik kasb etmoqda. Shu jumladan, muhtaram Prezidentimiz tomonidan ta’kidlanganidek: “...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”ni¹ ado etishda ham bu boradagi izlanishlar amaliy natijalar berishi shubhasizdir. O‘zbek va ingliz tillaridagi mediadiskurs evfemizmlarining lingvokulturologik xususiyatlarini tizimli asosda tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyoj, evfemizmlarning tarjimasida yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda tarjima adekvatligiga ta’siri ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilmaganligi, shuningdek, mavjud evfemistik birliklarning madaniy va kommunikativ ekvivalentligini saqlagan holda tarjima qilishning ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqish hozirgi globallashuv va transmilliy axborot almashinuvi sharoitida nihoyatda muhimdir. Shu sababli ushbu izlanish milliy va xalqaro kommunikatsiya maydonida til va madaniyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy ish sifatida e’tirof qilinishi mumkin. Zero, media orqali tarqaladigan til birliklarining madaniy funksiyasi hamda ularni boshqa tilga to‘g‘ri va adekvat tarjima qilish, millatlararo muloqotda madaniy sezgirlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабрдаги нутқи / “Халқ сўзи” – 2017 йил, 23 декабрь. № 258.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Evfemizm hodisasi jahon tilshunosligida keng o'rganilgan leksik-semantik, stilistik va madaniy-kommunikativ hodisalardan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab evfemizm fenomeni semantik yumshatish vositasi sifatida nafaqat so'z boyligini kengaytiruvchi omil, balki til va madaniyat o'rtasidagi ko'priksifatida tadqiq etib kelinmoqda. Dastlabki izlanishlar G. Hornay, A.A. Reformatskiy, B.A.Larin, L.A. Buaxovskiy kabi olimlar tomonidan o'rganilgan, evfemizm tabu hodisalari bilan bevosita bog'liqlikda izohlangan².

Ingliz tilshunosligida A.M. Katsev, E. O. Miloenko, Yu. S. Baskova hamda G.A. Vildanova evfemizmni xushmuomalalik akti tamoyili asosida gender va ijtimoiy kommunikatsiya kontekstida o'rgangan³. Ayniqsa, G.A.Vildanovanning "Euphemia and the Principle of Politeness in Modern English: Gender Aspect" nomli tadqiqoti evfemizmning gender va madaniy konnotatsiyalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

MDH davlatlarida, xususan, rus tilshunosligida L.P. Krysinning evfemizmlar haqidagi ishlari zamonaviy rus nutqida evfemik birliklarning qo'llanish usullari va ijtimoiy ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan⁴. V.P.Moskvina, E.P.Senichkina, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Yu.S.Baskova va E.O.Miloenkoning tadqiqotlarida esa evfemizmlar va disfemizmlar mediadiskursda manipulyativ vosita sifatida qaralgan⁵.

²Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. зап. Ленингр. ун-та, № 301: Сер. филол. наук: Вып.№ 60 – Л.: ЛГУ, 1961. – С. 110-124.

³ Вильданова Г.А. Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект. – Москва-Берлин: Директ-Медиа, 2015. –162 с.

⁴Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи // www/ Philology.ru; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка // Василий Павлович Москвин. 2-е изд. – М.: Ленинград, 2007. – 264 с.; Сеничкина Е. П. Эвфемизмы русского языка. – Москва: Высшая школа, 2006. – 151 с.

⁵Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Ленинград: Наука, 1977. – 65 с. // Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Ленинград: Наука, Ленинградское отд., 1989. – 130 с. // Саакаян Н.Л. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике

O‘zbek tilshunosligida evfemizm masalasi N.Ismatullayev tomonidan ilk bor tizimli ravishda tadqiq etilgan bo‘lib, u evfemik birliklarning o‘zbek tilidagi funksional imkoniyatlari, tabu bilan bog‘liqligi va semantik xususiyatlarini aniqlagan⁶. A. Omonturdiyev esa o‘zining “O‘zbek nutqining evfemik asoslari”, “Professional nutq evfemikasi” kabi ilmiy asarlarida evfemizmlarning uslubiy va nutqiy jihatlarini tahlil qilgan, evfemik lug‘atlarni tuzgan holda ilmiy-amaliy asoslar yaratgan⁷.

A.E.Mamatov, Z.Xolmanova va D.Rustamova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda evfemik va disfemik ifodalarning frazeologik birliklar shakllanish jarayonidagi o‘rni hamda ta’siri batafsil o‘rganilgan. Ularning ishlarida, xususan, “Boburnoma” asaridagi evfemik qiyofalar va ifodalar tahlil qilinib, bunday birliklarning nutq madaniyati hamda ijtimoiy-hissiy komponentlar bilan aloqasi tadqiq etilgan⁸. Shuningdek, mazkur ishlarda evfemizmlarning o‘ziga xos funksional xususiyatlari va ularning metaforik xarakterlari konseptual nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bu ilmiy yondashuvlar frazeologik birliklarning lingvistik va sotsiokultural asoslarini aniqlashga xizmat qilmoqda hamda evfemizmlarning lingvosemantik va pragmatik xususiyatlarini yanada yaxshiroq tushunishga imkon yaratmoqda.

So‘nggi yillarda Sh.K.Gulyamova o‘z ilmiy tadqiqotida o‘zbek tilidagi evfemizmlarning gender xususiyatlarini, ularning lingvokulturologik va pragmatik omillar asosida shakllanishini tahlil qilgan⁹.

Tarjimashunoslik sohasida esa evfemizm va disfemizmning o‘zaro almashinish jarayoni, ayniqsa, etnomadaniy to‘qnashuvlar, konnotatsiyaviy yo‘qotishlar va madaniy moslik muammolari X.B.Kadirova tomonidan alohida tadqiq qilingan. Muallif badiiy tarjimada evfemizmlarni adekvat yetkazish uchun tarjimonning madaniy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga egaligini alohida ta’kidlagan¹⁰. Biroq tilshunoslikda shu kungacha evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘zbek va ingliz mediadiskursi materiallari misolida chog‘ishtirma o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus monografik tadqiqot ishi mavjud emas.

непрямого речевого убеждения: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 23 с. // Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ (на материале русского и английского языков): дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 26 с. // Милоенко Е.О. Специфика функционирования эвфемизмов в индивидуальном лексиконе: дисс. ...канд. филол. наук. – Курск, 2009. – 24 с.

⁶ Исмаатуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 24 с. // Омонтурдиев А. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1997. – 23 б. // Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): филол. фан. докт... дисс. – Т., 2009. – 252 б.

⁷ Омонтурдиев А., Омонтурдиев Ж. Сўз қўллаш санъати. – Термиз: Жайхун, 1994. – 60 б.; Омонтурдиев А. Бир сўз лугати. – Термиз: Жайхун, 1996. – 45 б.; Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лугати. – Тошкент, 2000. – 134 б.; Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – 128 б.; Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.

⁸ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси шаклланиши масалалари: филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 56 б. // Холманова З.Т. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 22 б. // Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 50 б.

⁹ Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари. – Бухоро, 2020. (PhD dissertatsiyasi)

¹⁰ Қодинова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмлардан фойдаланиш маҳорати: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 23 б.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining "Turli tizimdagi tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va ingliz mediadiskursida qo'llanilayotgan evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, xususan, ularning madaniy, kommunikativ va tarjima jihatlaridagi o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

evfemizmlarning falsafiy, ontologik va lingvomadaniy asoslarini tahlil qilish, jamiyatdagi tabu, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlarining evfemik birliklar shakllanishidagi rolini aniqlash;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning tipologiyasi hamda madaniy xususiyatlarini o'rganish, xususan, har ikki tildagi evfemistik birliklarni yangi integratsion toifalar bo'yicha tasniflash, ularning lingvokulturologik konnotatsiyasi, milliy madaniyatga xos semantik yuki va madaniy kodlar bilan uyg'unligini ochib berish;

o'zbek va ingliz mediadiskurs evfemizmlari tarjimasida yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalarini o'rganish, asosiy tarjima usullarini (ekvivalentlik, adaptatsiya, tushuntirish (explicitation)) aniqlash va ularning madaniyatdagi rolini asoslash;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlar tarjimasida uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan elektron dastur yaratish, xususan, mediadiskurs matnlarida evfemizmlarning semantik, stilistik va pragmatik adekvatligini ta'minlovchi tarjima usullaridan to'g'ri foydalanish hamda madaniyatlararo muloqot va tarjima amaliyoti uchun ilmiy asoslangan takliflar berish.

Tadqiqotning obyektini o'zbek va ingliz mediadiskursida ishlatilgan evfemizmlar, ya'ni ommaviy axborot vositalaridagi axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy yoki boshqa nozik mavzularni yumshatib ifodalash uchun qo'llanilgan til birliklari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti sifatida o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarining lingvokulturologik xususiyatlari, semantik va stilistik funksiyalari hamda ularning tarjima jarayonidagi madaniy-ekvivalentlik hamda pragmatik adekvatlik muammolari, xususan, interferensiya va transpozitsiya holatlari bilan bog'liq lingvokulturologik xususiyatlari tanlangan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida lingvistik tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tipologik, kontekstual, kommunikativ-pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

evfemizmlar falsafiy, ontologik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinib, har ikki tildagi evfemizmlarning madaniy kodlar bilan bog'liqligi, milliy-axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlar tarjimasida yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalari kompleks lingvopragmatik mexanizmlar

sifatida o'rganilib, asosiy tarjima usullarining madaniy sezgirlikni saqlash darajasi aniqlangan;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning yangi tipologik tasnifi ishlab chiqilib, o'zbek va ingliz mediamatnlarida ishlatiladigan evfemizmlar nominal, nominal-deskriptiv, ekspressiv-aksional kabi turlarga ajratilgan hamda madaniy va kommunikativ jihatdan dalillangan;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning madaniyatlararo adekvat tarjimasini uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan elektron dastur yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek madaniyatlarida shakllangan evfemistik ifodalar orasidagi konseptual farqlar ochib berilgan bo'lib, bu natijalar madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda, ayniqsa, tarjimonlar va jurnalistlar tayyorlov kurslarida amaliy qo'llanilishi mumkinligi asoslangan;

evfemizmlar tarjimasida interferensiya va transpozitsiya hodisalari real media misollari asosida chuqur tahlil qilinib, ularning adekvatlikka va madaniy sezgirlikka ta'siri ko'rsatib berilgan hamda bu natijalar tarjimashunoslik sohasida evfemik birliklar tarjimasini bo'yicha maxsus darslik va qo'llanmalar yaratish imkonini berishi isbotlangan;

tadqiqot asosida o'zbek va ingliz tillaridagi mediadiskurs evfemizmlarining tarjima muammolariga doir lingvokulturologik model ishlab chiqilgan bo'lib, bularning, asosan til o'rgatishda, tarjima amaliyotida va media-analitika kurslarida qo'llanilishi mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, evfemizmlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar – ekvivalentlik, madaniy adaptatsiya, izohli tarjima va funksional almashtirish metodlari tizimlashtirilib, bu metodlar tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid o'quv kurslarida foydalanish uchun metodik asos vazifasini bajarishi aniqlangan;

dissertatsiyada to'plangan mediadiskurs evfemizmlari va ularning tarjima variantlari asosida amaliy korpus materiali shakllantirilgan bo'lib, bu korpus mediatilshunosligi, lingvokulturologiya, semantika va stilistika sohalari bo'yicha tayyorlanadigan tadqiqot ishlariga tayanch material bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natija va xulosalarni isbotlovchi ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ularning dissertatsiyaning nazariy jihatiga muvofiqligi, til materiallari hajmining nufuzliligi, misollar tahlilining ilmiy-metodologik nuqtayi nazardan asoslanganligi, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy anjuman materiallari, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola va xulosalarning amaliyotga joriy qilinishi, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda evfemizmlarning tilshunoslikdagi o'rni va funksiyalari lingvokulturologik, tarjimaviy, stilistik hamda pragmatik nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilinganligi; o'zbek va ingliz tillaridagi mediaevfemizmlarining madaniy ildizlari, semantik yuklamalari va kommunikativ vazifalari o'rganilib, ularning milliy-madaniy tafovutlar asosida shakllanishi ilmiy

jihatdan asoslab berilganligi, ayniqsa, tarjima jarayonida yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalari lingvopragmatik model asosida baholanib, evfemizmlarning madaniyatlararo muloqotdagi roli ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, mediatilshunoslik, diskurs tahlili, matn lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik kabi fanlar bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'qitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, darslik va qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tarjimon va jurnalistlar uchun evfemizmlarning adekvat tarjimasini ta'minlash, madaniy sezgirlikni hisobga olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

evfemizmlarning falsafiy, ontologik va lingvomadaniy jihatdan tahlili, har ikki tildagi evfemizmlarning madaniy kodlar bilan bog'liqligi, milliy-axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanishi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi, Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan "Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri" mavzuidagi fundamental tadqiqot loyihasida amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 2-sentabrdagi №526/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotda erishilgan ilmiy xulosalar fundamental loyihaning ilmiy bazasini boyitishga va uning natijalarining puxta asoslanishiga salmoqli hissa qo'shgan;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlar tarjimasida yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalari kompleks lingvopragmatik mexanizmlar sifatida o'rganilib, asosiy tarjima usullarining madaniy sezgirlikni saqlash darajasiga oid nazariy ma'lumotlardan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Erasmus + dasturining 561574-EPP-1-2015-1-ES-EPPKA2 - CBHE-JP - ECCUM: "Establishment of Computing Centers and Curriculum Development in Mathematical Engineering Master programme" grant loyihasida foydalanilgan (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining 2025-yil 18-avgustdagi №06-146/4-son ma'lumotnomasi). Natijada, materiallar tarjimashunoslik taraqqiyoti uchun muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini bergan va loyihani boyitishga xizmat qilgan;

o'zbek va ingliz mediamatnlarida ishlatiladigan evfemizmlarning nominal, nominal-deskriptiv, ekspressiv-aksional shakllarining madaniy-kommunikativ xususiyatlarini yangi tipologik tasniflash borasidagi ilmiy yangiliklari va tahlillaridan "Xorazm" teleradiokompaniyasining "Assalom Xorazm" ko'rsatuvi hamda "Najot-bilimda" radioeshittirishi ssenariylarini tayyorlashda, shuningdek, boshqa bir nechta dasturlarda muxbirlar nutqida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Xorazm viloyati teleradiokanalining 2025-yil 31-iyuldagi 613-son-ma'lumotnomasi). Natijada evfemik birliklarning dasturlar kontentida qo'llanish mexanizmlari, shuningdek, turli madaniy va ijtimoiy guruhlar uchun

mos evfemistik ifodalarni tanlash usullari, televideniye dasturlarida nozik va ta'sirchan mavzularni madaniy sezgirlik bilan yoritishda evfemizmlardan foydalanish strategiyalari, mediakontentida tomoshabinlarning emotsional qabul qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan evfemik birliklardan samarali foydalanish usullarining mohiyati mukammal ochib berilgan;

o'zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning madaniyatlararo adekvat tarjimasini uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan elektron dastur O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq "Media euphemisms dictionary (Eng-Uz, Uz-Eng)" nomi ostida ma'lumotlar bazasining rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma berilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining DGU 2025-yil 9-sentabrdagi № DGU 54480 raqamli guvohnomasi). Natijada, foydalanuvchilar mediadiskursda uchraydigan evfemistik birliklarni tezkor izlash, ularning semantik hajmi, pragmatik vazifasi va madaniy konnotatsiyalarini ingliz va o'zbek tillari kesimida chog'ishtirma tahlil qilish, shuningdek, kontekstga mos adekvat tarjima variantlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro anjumanda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot tarkibiga ko'ra kirish, uchta bob, xulosa, va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining birinchi bobi "**Tilshunoslikda evfemizm va mediadiskursning nazariy asoslari**" deb nomlangan. Uning dastlabki faslida "**O'zbek va ingliz mediadiskursining lingvistik hamda stilistik o'ziga xosliklari**" tadqiq etilgan. Mediadiskurs tushunchasi Teyn A. van Deyk, N.Fairclough,

R.Wodak kabi olimlarning ishlariga asoslanib tahlil qilingan¹¹. Mediadiskurs nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi g'oyaviy qurilma sifatida ko'rsatilgan.

O'zbek va ingliz mediadiskursida leksik-semantik vositalar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan, emotsional leksik birliklar qatlamida o'zbek matnlarida "portlash", "ruhiy zo'riqish" kabi kuchli hissiy holatni ifodalovchi so'z va birikmalar uchrasa, ingliz mediadiskursida bu ma'no ixcham "meltdown" leksemasi orqali beriladi. Bu yerda har ikkala til hissiy zo'riqish, bosim ostida ruhiy holatning izdan chiqishini ifodalasa-da, ifoda shakli va obrazlilik darajasi bilan farqlanadi.

Metaforik birliklar ham ikkala til mediadiskursida faol: o'zbek matnlarida "siyosiy shamol" ifodasi siyosiy vaziyatning tez-tez o'zgarishini, yo'nalish almashishini ifodalasa, ingliz tilida "political storm" birikmasi siyosatdagi keskinlik, beqarorlik va ziddiyatlar kuchli bo'ron obrazida tasvirlanadi.

Frazeologik vositalar qatlamida o'zbek mediadiskursida "ko'z ochib yumguncha" iborasi voqea-hodisalar nihoyatda tez sodir bo'layotganini ko'rsatadi; ingliz tilida esa shu ma'no "in the blink of an eye" iborasi bilan ifodalanadi. Har ikkalasi ham tezlikni ko'rsatadigan barqaror frazeologik birlik bo'lib, funksional jihatdan mos keladi.

Global neytrallikni ifodalovchi birliklar esa, masalan, o'zbek matnlarida "xalqaro hamkorlik", ingliz mediadiskursida "international cooperation" shaklida qo'llanadi. Bu turdagi birliklar emotsional bo'yoqsiz, neytral-siyosiy yoki diplomatik uslubga xos bo'lib, global kun tartibini yoritishda, xalqaro aloqalarni baholashda ishlatiladi.

Evfemistik vositalar misolida o'zbek mediamatnlarida rasmiy uslubga xos "o'z vazifasidan ozod etildi" birikmasi ishlatiladi; ingliz diskursida esa shu mazmun yumshoqroq, "give smb a chance to spend time with his family" tarzida berilib, amalda lavozimdan ketish holati "oila bilan vaqt o'tkazish imkoniyati" sifatida niqoblanadi. Bu holat ingliz mediadiskursida evfemizmlarning yanada sezilarliroq, yumshatib ifodalash funksiyasiga egaligini ko'rsatadi.

Ingliz mediadiskursida evfemizmlar ko'proq siyosiy korrektilik tamoyillariga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida ular axloqiy va diniy qadriyatlar bilan boyitilgan. Stilistik vositalarning qo'llanishida ham sezilarli farqlar aniqlangan: ingliz tilida ironiya va kinoya keng ishlatilsa, o'zbek tilida bunday iboralar senzura cheklovlari tufayli kamroq uchraydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz OAVida metafora ("economic tsunami", "political theater") 85 %, o'zbek OAVida esa "ijtimoiy zilzila", "siyosiy sahna" kabi birliklar 65 % darajada qo'llanadi. Emotsional leksika ingliz matnlarida 90 % ("shocking revelation", "heroic effort"), o'zbek matnlarida 80 % ("achinarli holat", "oltin yurakli inson")ni tashkil etib, har ikki mediadiskursda hissiy baholash yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi. Ironiya va kinoya ingliz OAVida taxminan 70 % ("acted swiftly" — "after delay") darajada uchrasa, o'zbek

¹¹ Van Dijk T.A. Discourse and Power. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2008. – P.308; Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – P. 54-61; Wodak R. Methods of Critical Discourse Analysis. 2nd ed. – London: SAGE Publications, 2009. – P. 272.

OAVida u atigi 10 % bo‘lib, senzura va o‘zini senzura qilish omillari bilan izohlanadi. Frazеologik birliklar ingliz tilida 75 % (“*tip of the iceberg*”, “*crossing the red line*”), o‘zbek tilida 70 % (“*yechimini kutayotgan muammo*”, “*chegaradan chiqmoq*”) atrofida qo‘llanib, matnning obrazliligi va milliy-madaniy konnotatsiyalarini ta‘minlaydi. Intensifikatsiya vositalari ingliz OAVida 80 % (“*utter disaster*”, “*complete failure*”), o‘zbek OAVida 60 % (“*mudhish oqibat*”, “*keskin burilish*”) nisbatida qayd etilgan bo‘lsa, evfemizmlar ingliz tilida 60 % (“*passed away*”, “*downsizing*”), o‘zbek tilida esa 85 % (“*vafot etdi*”, “*shtat qisqartirilishi*”) bilan ajralib turadi. Umuman, ingliz mediadiskursida metafora, ironik ifoda va bo‘rttirma kuchliroq, o‘zbek mediadiskursida esa emotsional leksika va, ayniqsa, evfemizmlar ustuvor ekanligi aniqlangan.

Bularning natijasi sifatida mediadiskursda evfemizmining o‘rni va ahamiyati borasida yangi ta‘rif taklif etilgan. Mediadiskursdagi evfemizmlar – bu ommaviy axborot vositalarida nafaqat ijtimoiy, madaniy, siyosiy, diniy yoki etnik jihatdan sezgir, tabu yoki stigmatik hisoblanadigan shaxs, narsa, hodisa, holat yoki harakatlarni bevosita, to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalashdan ehtiyotkorlik bilan qochib, ularni semantik jihatdan yumshatilgan, stilistik jihatdan neytrallashtiruvchi, pragmatik jihatdan maqbul yoki konnotativ jihatdan ijobiy tusga ega bo‘lgan til birliklari orqali diskursiv transformatsiya qilish maqsadida qo‘llaniladigan, balki milliy-madaniy kodlarga asoslangan, axloqiy va ideologik qadriyatlar tizimiga moslashtirilgan hamda auditoriyaga yo‘naltirilgan kommunikativ strategiyani amalga oshiruvchi, psixolingvistik ta‘sir mexanizmlariga ega bo‘lgan va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiluvchi lingvokulturologik fenomendir.

Bobning ikkinchi faslida “***Jahon va o‘zbek tilshunosligida evfemizmgа oid ilmiy-nazariy qarashlar***” tahlil qilingan. Evfemizmda tadqiqotlarining tarixiy rivojlanishi A.A. Reformatskiy, B.A. Larin, L.A. Bulaxovskiy kabi olimlarning dastlabki ishlaridan boshlab zamonaviy davrga qadar kuzatib chiqilgan¹².

G‘arb tilshunosligida evfemizmda strukturalistik, pragmalingvistik va kognitiv-diskursiv paradigmalarda doirasida o‘rganilgan. L.P. Krisin, V.P. Moskvina, E.P. Senichkina kabi rus tilshunoslarining ishlarida evfemizmlar mediadiskursda manipulyativ vosita sifatida ko‘rilgan¹³. Ingliz tilshunosligida A.M. Katsev, G.A. Vildanova evfemizmda gender va ijtimoiy kommunikatsiya kontekstida tadqiq etganlar¹⁴.

O‘zbek tilshunosligida evfemizmda masalasi N. Ismatullayev tomonidan birinchi marta tizimli ravishda o‘rganilgan¹⁵. A. Omonturdiyevning “O‘zbek nutqining evfemik asoslari”, “Professional nutq evfemikasi” asarlarida

¹² Larin B.A. Об эвфемизмах // Ученые записки Ленинградского ун-та № 301. Серия филол. наук. – Вып. 60, 1961. – С. 109-110. Булаховский Л.А. Табу и эвфемизмы // Булаховский Л.А. Введение в языковедение. – Ч.2. – М., 1953. – С. 50. Реформатский А.А. Табу и эвфемизмы // Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 1998. – С. 107

¹³ Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык в школе. – 1994. – № 5. – С. 28-49.

¹⁴ Вильданова Г.А. Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект. – М.: Директ-Медиа, 2015. – 162 с.

¹⁵ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 24 с.

evfemizmlarning uslubiy va etnolingvistik jihatlari tahlil qilingan ¹⁶. Sh.K.Gulyamovaning tadqiqotida evfemizmlarning gender xususiyatlari ¹⁷, X.B.Kadirovaning ishida esa badiiy tarjimada evfemizmlarning adekvat yetkazilish masalalari ko‘rib chiqilgan¹⁸.

G‘arb va o‘zbek tilshunosligida evfemizmgga bo‘lgan yondashuvlar umumiylikka ega bo‘lishiga qaramay, ularning ilmiy metodologiyasi, madaniy-funksional vazifalari va lingvistik asoslari o‘ziga xosdir. G‘arbiy yondashuvlar evfemizmni kommunikatsiya va ijtimoiy strategiya sifatida ko‘rsa, o‘zbek tilshunosligi uni madaniy ong mahsuli, axloqiy va diniy qadriyatlarining lingvistik ifodasi sifatida tahlil qiladi.

G‘arb tilshunosligida evfemizmlar, asosan, strukturalizm, pragmatika va kognitiv yondashuvlar doirasida izohlanib, ularning kommunikativ strategiya, ideologiya va metaforik talqin bilan bog‘liqligi markazga olinadi. O‘zbek tilshunosligida esa evfemizmlar diaxron tahlil, semiotika va diskurs lingvistikasi asosida, avvalo, tarixiy-ma‘naviy meros, urf-odat va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganiladi. G‘arb tadqiqotlarida misollar ko‘proq siyosiy nutq, reklama, gender, sog‘liq va o‘lim mavzulari materialida tahlil etilsa, o‘zbek ilmiy ishlarida folklor, iboralar, madaniy kodekslar va badiiy matnlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Metodlar qiyoslanganda, g‘arbda korpus lingvistika, diskurs tahlili va tanqidiy yondashuvlar keng qo‘llanadigan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida tavsifiy-tahliliy, lingvoetnografik hamda kontent tahlili metodlari ustuvor ekani ko‘rinadi. Natijada evfemizmlar g‘arb an‘analarida ko‘proq kommunikativ-strategik va ideologik vosita, o‘zbek tadqiqotlarida esa milliy-madaniy va ma‘naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari sifatida talqin qilinadi.

Uchinchi faslda **“Evfemizmlar va uning falsafiy-lingvistik asoslari”** masalasi tahlil qilingan. Bu yerda evfemizmlarning etimologik kelib chiqishi (yunon tilidan “euphemia” – “yumshoq ifoda”)¹⁹ va uning tarixiy rivojlanishi tahlil etilgan. Evfemizmlar nafaqat til hodisasi, balki madaniy-kognitiv fenomen sifatida ontologik mohiyatga ega ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotda evfemizmlarning falsafiy asoslari uch asosiy paradigma doirasida o‘rganilgan: sotsiomadaniy determinizm (masalan, G‘arbda *“collateral damage”* (talofat qurbonlari) ifodasi urushdagi fuqarolar halokati uchun ishlatilsa, O‘zbekiston kontekstida *“tinchlikparvar harakatlar”* birikmasi *qurolli mojarolarni yumshatish uchun qo‘llaniladi*), antroposentrik paradigma (masalan, *“ishdan bo‘shatildi”* o‘rniga *“kadrlar bazasi yangilandi”* ifodasi ishlatilganda, bu hodisa xodimning shaxsiy qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qiladi) va diskursiv realistik nazariya (masalan, siyosiy nutqda *“demokratik islohotlar”* birikmasi rejalashtirilgan o‘zgarishlarni yashirish uchun ishlatilishi mumkin). Sotsiomadaniy determinizm konsepsiyasi asosida evfemizmlarning jamiyatdagi

¹⁶ Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – 128 б.; Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 232 б.

¹⁷ Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – 142 б.

¹⁸ Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizmlar va disfemizmlar. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 168 b.

¹⁹ Allan K., Burrige K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 12.

axloqiy me'yorlar, madaniy an'analar bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatilgan. Antroposentrik yondashuvda evfemizm insonning psixologik himoya mexanizmi va kommunikativ ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida tahlil qilingan.

Evfemizmning lingvistik xususiyatlari leksik, stilistik va pragmatik darajalarda tadqiq etilgan. Leksik darajada evfemizmlar semantik almashtirish, metaforik va metonimik ifoda orqali yuzaga chiqishi, stilistik jihatdan nutqni yumshatish vazifasini bajarishi, pragmatik nuqtayi nazardan esa ijtimoiy muvozanatni saqlash funksiyasini amalga oshirishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek va ingliz mediadiskursida evfemizmlarning madaniy-kommunikativ xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda evfemizmlarning yangi integrativ tipologiyasi ishlab chiqilgan va o‘zbek hamda ingliz mediadiskursidagi evfemizmlarning milliy-madaniy, semantik va pragmatik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan.

Birinchi faslda **“Mediadiskursdagi evfemizmlarning lingvokulturologik tahlili masalalari”** ko‘rib chiqilgan. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan fan sifatida ta‘riflangan²⁰. Evfemizmlarning lingvokulturologik tahlilida madaniy kontekst va tabular, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri, mediadiskursdagi funksiyalar hamda lingvistik va madaniy normativlik jihatlarini o‘z ichiga olishi ko‘rsatilgan²¹. Masalan, mashhur o‘zbek shoiri Erkin Vohidovning vafoti haqida Kun.uz internet-nashri tomonidan 2023-yilda chop etilgan “Mashhur shoir Erkin Vohidov xotirasiga” maqolasida *“dunyosini o‘zgartirdi”* evfemizmining ishlatilishi islom diniy qarashlariga asoslangan bo‘lib, o‘limni so‘nggi nuqta emas, balki boshqa bir holga o‘tish sifatida talqin qiladi. Bu evfemizm tinglovchiga ruhiy qulaylik yaratadi va marhum kishiga hurmat bildirish vazifasini bajaradi. Yana bir misolda o‘g‘irlik va o‘zga mulkni noqonuniy o‘zlashtirishni ifodalashda to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlanishlardan ko‘ra evfemistik qurilmalar ustunlik qiladi. Bu hodisaning yaqqol namunasini Daryo.uz internet nashrining 2024-yilda chop etilgan “Mahallada sodir bo‘lgan voqea haqida” maqolasida kuzatish mumkin. Maqolada *“Yoshlar orasida qo‘li yengil o‘smirlar aniqlandi”* jumlasini qo‘llanilgan bo‘lib, bu bevosita “o‘g‘ri” yoki “o‘g‘irlik qildi” kabi keskin ifodalarga muqobil yumshoq til vositasi sifatida tahlil qilingan.

Ingliz mediadiskursida homiladorlikni ifodalashda “pregnant” so‘zi o‘rniga “expecting” yoki “in the family way” kabi evfemistik iboralar keng qo‘llaniladi. The Guardian nashrining 2024-yildagi Lifestyle bo‘limida “The Duchess is expecting her third child this spring” jumlasida evfemizmlar Viktoriya davri Britaniya jamiyatida ayol tanasi va jinsiy hayotga oid mavzularning qat‘iy tabu hisoblanganligidan kelib chiqqan. “Expecting” evfemizmi gender sezgirligi, yuqori tabaqa nutq etiketi va homiladorlikni oilaviy maxfiy voqea sifatida talqin qilish vazifalarini bajaradi. Bu evfemizmning grammatik strukturasi (hozirgi davom fe‘li shakli) va protestant-viktorian madaniy konteksti uni boshqa tillarga to‘g‘ridan

²⁰ Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 118-124.

²¹ Alzmann Z., Stanlaw J., Adachi N. Language, Culture, and Society: An Introduction to Linguistic Anthropology. – Westview Press, 2012.

to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydigan, ingliz tiliga xos lingvokulturologik hodisaga aylantiradi.

Tadqiqotda evfemizmlarning yangi integrativ tipologiyasi taklif qilingan: "nominal", "nominal-deskriptiv" va "ekspressiv-aksional" guruhlariga ajratilgan. Bu yondashuv mavjud semantik va funksional tasniflarni to'ldirib, evfemizmlarning strukturaviy va kontekstual xususiyatlarini chuqurroq ochib berishi asoslab berilgan.

Ikkinchi faslda "*Nominal evfemizmlarning o'zbek va ingliz madaniy kontekstidagi milliy xususiyatlari*" tadqiq etilgan. Nominal evfemizmlar ma'lum bir obyekt, status, shaxs yoki nomni bevosita aytishdan qochib, semantik jihatdan yumshatilgan birliklar bilan ifodalovchi til vositalari sifatida ta'riflangan. Masalan, "*tozalik xodimi*" (*Environmental services worker*) so'z birikmasi "*farrosh*" (*janitor*) ijtimoiy mavqeyini yumshoqroq tarzda ifodalaydi.

Nominal evfemizmlarning strukturaviy xususiyatlari tahlil qilingan: ular grammatik jihatdan, asosan, ot va ot birikmasi shaklida bo'lib, sintaktik jihatdan subyekt, obyekt yoki predikativ rollarda faol ishlatilishi aniqlangan. Semantik jihatdan ular ko'pincha metaforik, metonimik yoki umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, salbiy yoki tabu mazmunlarni yumshatish va maskirovka qilishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan.

Nominal evfemizmlar o'zbek va ingliz tillarida salbiy konnotatsiyaga ega ijtimoiy hodisalarni yumshoqroq, ijtimoiy maqbulroq shaklda ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilida "*ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar*" birikmasi bevosita "*qashshoqlar, ishsizlar*" kabi keskinroq va salbiy ma'noli so'zlar o'rnida qo'llanib, rasmiy uslub doirasida ijtimoiy muammolarni neytrallashtirib, ohangni yumshatadi. Ingliz tilida esa "*individuals experiencing housing insecurity*" evfemizmi "*homeless people*" ifodasiga nisbatan ancha yumshoq, subyektga nisbatan hurmat va empatiyani ifodalovchi variant bo'lib, siyosiy to'g'rilik tamoyillariga mos ravishda shaxsni "*muammo*"dan ajratib, e'tiborni holatga qaratadi. Shu tariqa, har ikki tildagi nominal evfemizmlar ijtimoiy jihatdan nozik masalalarni to'g'ridan to'g'ri, keskin nomlashdan qochish, kommunikativ muvozanatni saqlash va auditoriyada salbiy taassurotni kamaytirish funksiyasini bajaradi.

Milliy-madaniy xususiyatlar tahlili natijasida ingliz tilidagi evfemizmlarning siyosiy korrektilik, neytrallik va individual erkinlik asosida shakllanishi, o'zbek tilida esa hurmat, bag'rikenglik, sukut saqlash odobi va ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga xizmat qilishi aniqlangan.

Nominal evfemizmlar o'zbek va ingliz tillarida ijtimoiy hodisalarni nomlashda milliy-madaniy qadriyatlar, diniy an'analar va siyosiy-ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq sohada "*qari*" leksemasi o'zbek tilida "*nuroniy*", "*oqsoqol*" shaklida evfemistik ravishda qo'llanib, ulug'lash, donolik va axloqiy hurmatni ifodalaydi; ingliz tilida esa "*senior citizens*" varianti siyosiy korrektilik va fuqarolik nuqtayi nazaridan tenglikni ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, "*yetim*" so'zi o'rniga o'zbek tilida "*boquvchisini yo'qotgan bola*" birikmasi qo'llanib, mehr-oqibat va ijtimoiy

hamdardlikni kuchaytirsa, ingliz tilidagi “*child in care*” ifodasi asosan professional institutsional yordam va davlat homiyligi kontekstini aks ettiradi²².

Diniy omillar ta’sirida shakllangan evfemizmlar ham sezilarli: “*o’lgan*” o’rnida o’zbek tilida “*marhum*”, “*rahmatli*” kabi birliklar ishlatilib, islomiy qadriyatlar, duo va hurmatga yo’g’rilgan diniy-axloqiy konnotatsiyani yuzaga keltiradi; ingliz tilida esa “*deceased*”, “*passed away*” variantlari rasmiy-falsafiy neytrallikka yaqinroqdir. Ijtimoiy xizmat sohasi doirasida “*qariyalar uyi*” birikmasi o’zbek tilida “*saxovat uyi*” tarzida yumshatilib, saxovat va xayriya g’oyalariga urg’u beradi, ingliz tilidagi “*nursing home*” esa tibbiy xizmat va parvarish tizimini ifodalovchi, xizmatga yo’naltirilgan neytral so’zdir. Siyosiy muhitda “*qashshoqlar*” o’rniga o’zbek tilida “*kam ta’minlangan qatlam*” shakli birdamlik va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash ma’nosini kuchaytirsa, ingliz tilida “*welfare recipients*” ifodasi huquqiy-institutsional maqomni bildiradi; iqtisodiy muammolar kontekstida esa “*qashshoqlik*”ning “*iqtisodiy g’ovlar*” (o’zbekcha) va “*economic challenges*” (inglizcha) bilan almashishi salbiy holatni yumshatib, uni tizimiy muammo yoki yengib o’tilishi mumkin bo’lgan “*qiyinchilik*” sifatida talqin qiladi.

Jazo va huquqiy tizimga oid evfemizmlarda o’zbek tilida voyaga yetmaganlar uchun mo’ljallangan “*qamoqxona*” o’rniga “*axloq tuzatish koloniyasi*” shaklining qo’llanishi jazoni axloqiy isloh jarayoni sifatida ko’rsatishga intilsa, inglizcha “*correctional facility*” atamasi texnik-institutsional, rasmiy neytral nomlashga yaqin turadi. Gender bilan bog’liq sohada “*ayol kishi*”ning “*mazluma*”, “*zaifa*” shaklida evfemistik ifodalanishi bir tomondan himoya va rahm-shafqatni, ikkinchi tomondan ijtimoiy zaiflik va an’anaviy patriarxal maqomni aks ettiradi; ingliz tilida “*lady*”, “*woman*” esa asosan rasmiy murojaat va gender tengligi kontekstida ishlatiladi. Diniy sohada “*soxta dindorlar*” o’rniga o’zbek tilida “*ahli soqol*” ifodasining kinoyali-tanqidiy evfemizm sifatida qo’llanishi faqat o’zbek diniy-hayotiy tajribasiga xos bo’lib, ingliz tilida to’g’ridan to’g’ri mos evfemizm shakllanmagani ko’rinadi. Umuman olganda, o’zbek tilida evfemizmlar ko’proq hissiy-axloqiy, diniy va mehr-oqibatga yo’g’rilgan bo’lsa, ingliz tilida ular siyosiy korrektlik, huquqiy neytrallik va institutsional kontekstni ta’kidlovchi vosita sifatida namoyon bo’ladi²³.

Uchinchi faslda “**Nominal-deskriptiv evfemizmlarning o’zbek va ingliz mediadiskursidagi madaniy o’ziga xosligi**” o’rganilgan. Nominal-deskriptiv evfemizmlar holat yoki sifatni bevosita nomlash bilan birga, yumshoq, neytral yoki ijobiy baholovchi uslubda tavsiflash orqali ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida belgilangan. Masalan, ingliz tilidagi “*socially disadvantaged background*” ifodasi “*poor*” (*qashshoq*) ma’nosida beriladi.

Bu turdagi evfemizmlarning semantik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan: ular salbiy yoki noqulay ma’nolarni ijobiy, neytral yoki kamroq salbiy konnotatsiyalarda ifodalashga qaratilgan.

Pragmatik funksiyalar jihatidan nominal-deskriptiv evfemizmlarning tinglovchi yoki o’quvchining emotsional reaksiyasini boshqarish, ijtimoiy

²² Gazeta.uz arxivi. – URL: <https://www.gazeta.uz> (murojaat sanasi: 25.12.2024)

²³ CNN International. – URL: <https://edition.cnn.com> (murojaat sanasi: 18.12.2024)

maqbullik va siyosiy korrektlik mezonlariga mos axborot uzatish vazifasini bajarishi aniqlangan.

Nominal-deskriptiv evfemizmlar o‘zbek va ingliz mediadiskursida salbiy hodisalarni yumshoqroq talqin qilish orqali ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy jarayonlarni ifodalashda o‘zbek matnlarida “*ijobiy dinamika yo‘q*” birikmasi o‘shishning yo‘qligi yoki pasayishni bevosita “*inqiroz*”, “*recessiya*” kabi keskin atamalar bilan emas, balki yumshatilgan shaklda ifodalaydi; ingliz tilida esa “*negative growth*” ifodasi “*recession*” o‘rnida qo‘llanib, rasmiy optimizmni saqlagan holda ijtimoiy tashvishni kamaytirish strategiyasini aks ettiradi. Tibbiy diskursda har ikki tilda og‘ir ahvol “*o‘lim arafasida*” tarzida ochiq aytilmaydi: o‘zbek tilida “*ahvoli og‘ir*”, “*ahvoli og‘ir, lekin barqaror*”, ingliz tilida “*in critical condition*” kabi ifodasilar qo‘llanib, bir tomondan ijtimoiy maqbullikni ta‘minlasa, ikkinchi tomondan o‘zbek tilida empatiya va tasalli, ingliz tilida esa huquqiy-rasmiy ehtiyotkorlik ustuvor bo‘ladi²⁴.

Shaxsiy hayot va axloqiy baholarga oid birliklarda o‘zbek tilida “*xotinboz*” o‘rniga “*ayollarga suyaksiz*”, “*yuragi keng*” kabi ifodalar ishlatilishi erkakning jinsiy faoliyatini hazilomuz, yumshatilgan tarzda ifodalaydi va shu orqali gender stereotiplarini yashirin qo‘llab-quvvatlaydi; ingliz tilida “*serial dater*”, “*playful*” kabi nomlar “*womanizer*”ga nisbatan shaxsiy erkinlik va tanlovni romantiklashtirgan kontekstda talqin etiladi. Ob-havo va tashkiliy voqealar bilan bog‘liq holatlarda o‘zbek matnlarida “*havo sharoiti og‘irligi sababli*”, “*noqulay iqlim*” kabi ifodalarning ishlatilishi taqdirga ko‘nish va muloyimlikka asoslangan madaniy modelni namoyon etsa, ingliz tilidagi “*due to harsh weather*”, “*uncomfortable climate*” kabi ifodalar shikoyatni keskin ifodalamasdan, “*complaining-free communication*” tamoyiliga mos yumshatuvchi strategiyani ko‘rsatadi. Shu tariqa, o‘zbek diskursida evfemizmlar ko‘proq empatiya, ijtimoiy birdamlik va axloqiy muloyimlikni, ingliz diskursida esa rasmiy optimizm, huquqiy ehtiyotkorlik va kommunikativ neytrallikni ta‘minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi²⁵.

O‘zbek va ingliz mediadiskursida evfemizmlarning pragmatik funksiyasi umumiy jihatdan salbiy mazmundagi axborotni yumshatish va ijtimoiy maqbullikni saqlashga xizmat qiladi, biroq bu jarayon har bir tilda turlicha madaniy tayanchga ega. O‘zbek tilida evfemizmlar salbiylikni jamoa ichidagi muvozanatni saqlagan holda yumshatish, an‘anaviy odob-axloq me‘yorlarini buzmaslik, jamoaviy uyg‘unlikni asrashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ingliz tilida salbiy holatlarni diplomatik va optimistik ohangda ifodalash, professionalizm va diplomatik neytrallikni saqlash ustuvor sanaladi. Shu ma‘noda, har ikkala tilda ham evfemizmlar ijtimoiy ongni boshqarish, emotsional reaksiyani jilovlash va nutqning ijtimoiy maqbulligini ta‘minlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘zbek tilidagi evfemizmlar jamoaviy uyg‘unlik, muloyimlik, empatiya va barqarorlikka tayangan

²⁴ Kun.uz arxivi. – URL: <https://kun.uz> (murojaat sanasi: 23.12.2024)

²⁵ The Guardian Media Archive. – URL: <https://www.theguardian.com> (murojaat sanasi: 16.12.2024)

holda shakllanadi; hurmat, osoyishtalik va mehr-oqibat asosiy mazmuniy fonni tashkil etadi. Ingliz tilida esa individual erkinlik, siyosiy to'g'rilik va diplomatik kommunikatsiya bilan bog'liq qadriyatlar yetakchi bo'lib, evfemizmlar ko'proq shaxsiy huquq, tenglik va ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan, neytral ohangni ta'minlashga qaratilgan. Demak, umumiy funksional yaqinlikka qaramay, o'zbek tilida evfemizmlar an'anaviy-axloqiy va jamoaviy qadriyatlarga, ingliz tilida esa shaxsiy erkinlik va siyosiy to'g'rilik tamoyillariga tayanishi bilan farqlanadi.

To'rtinchi faslda ***“Ekspressiv-aksional evfemizmlarning o'zbek va ingliz mediadiskursidagi madaniy va kommunikativ xususiyatlari”*** tahlil etilgan. Ekspressiv-aksional evfemizmlar harakat yoki amalni bildiruvchi fe'llar yoki fe'l birikmalari shaklida yuzaga chiqadigan, voqea yoki harakatning mohiyatini yashirish vazifasini bajaruvchi lingvistik vositalar sifatida ta'riflangan.

Madaniy va kommunikativ xususiyatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ingliz tilida bunday evfemizmlar ko'proq rasmiy va diplomatik nutqda, siyosiy to'g'rilik prinsiplariga asoslanib ishlatiladi. O'zbek tilida esa ular ijtimoiy uyg'unlik, axloqiy qadriyatlar va madaniy an'analar bilan chambarchas bog'liq.

Ekspressiv-aksional evfemizmlar o'zbek va ingliz mediadiskursida, ayniqsa, o'lim va ishdan bo'shatish kabi keskin vaziyatlarni yumshoqroq talqin qilishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida *“to put an end to smb's life”* iborasi o'ldirish jarayonini strategiya yoki xavfni kamaytirish vositasi sifatida ko'rsatib, rasmiy siyosiy va harbiy nutqda zo'ravonlikni yumshatish, auditoriyani nisbatan ijobiyroq ruhda ushlab turish vazifasini bajaradi; bu holat g'arbona pragmatizm va siyosiy korrektilik tamoyillari bilan bog'liq. O'zbek tilida esa *“narigi dunyoga ravona qilmoq”*, *“nafasini kesmoq”* kabi ifodalar o'limni tabiiy, ilohiy bosqich sifatida tasvirlab, norasmiy, badiiy, diniy va xalqona nutqda jinoyat yoki o'lim faktini vahimasizroq yetkazish, tinglovchi ruhiyatini ortiqcha salbiylikdan asrashga xizmat qiladi²⁶.

O'limning diniy talqini ham ikki madaniyatda evfemizmlar orqali yaqqol ko'rinadi: ingliz tilida *“to answer the last call”* ifodasi o'limni *“ilohiy chaqiriqqa javob”* sifatida tasvirlaydi va diniy nutq, dafn marosimlari hamda rasmiy nekrologlarda psixologik yumshatish, hurmat va ruhiy barqarorlik yaratishga qaratilgan; bu xristian diniy tafakkuri hamda shaxsiy iroda bilan ilohiy irodaning uyg'unligi tasavvuriga tayanadi. O'zbek tilida *“Alloh marhamatiga olinmoq”* shakli o'limni ilohiy rahmat va qabul topish tarzida ko'rsatib, rasmiy nekrologlar, ta'ziya va diniy nutqda marhumga hurmat, sabr va qanoat tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi; bu esa islomiy taqdirparastlik va diniy e'tiqod bilan bevosita bog'liq.

Ishdan bo'shatish jarayonida ham ingliz va o'zbek tilidagi evfemizmlar turli madaniy modelni aks ettiradi. *“To spend more time with the family”* ifodasi iste'fo yoki bo'shatishni ijtimoiy maqbul shaxsiy sabab bilan izohlab, siyosiy va korporativ nutqda *“face-saving strategy”*ni amalga oshiradi, ya'ni shaxs va tashkilot obro'sini saqlash, vaziyatni yumshoqroq ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, individual erkinlik va shaxsiy hayotga hurmat qadriyatlariga tayanadi. O'zbek

²⁶ Daryo.uz. – URL: <https://daryo.uz> (murojaat sanasi: 19.12.2024). BBC News Archive. – URL: <https://www.bbc.com/news> (murojaat sanasi: 20.12.2024)

tilida *“lavozimidan ozod qilinmoq”* birikmasi shaxsning ketishini yuqori tuzilma qarori sifatida talqin etib, rasmiy nutq va hujjatlarda tashkilot ichki tartibini, ijtimoiy muvozanatni saqlash, ochiq tanqid va keskin bahslarning oldini olishga xizmat qiladi; bu esa hokimiyat vertikal, ijtimoiy tartib va rasmiylikka asoslangan diskurs modelini ko‘rsatadi. Shu tariqa, ekspressiv-aksional evfemizmlar har ikki tilda ham keskin mazmundagi harakat va holatlarni yumshatish, lekin turlicha diniy, siyosiy va madaniy asosda *“qayta kodlash”* orqali kommunikativ maqsadga erishishga xizmat qilishi aniqlanadi.

Bobda ishlab chiqilgan tipologik model evfemizmlarning tuzilma, funksiya, qo‘llanilish sohasi bo‘yicha tasniflanishi va har bir guruhning o‘ziga xos xususiyatlari jadval va diagrammalar orqali namoyon etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek mediadiskursidagi evfemizmlar ko‘proq madaniy-diniy qadriyatlarni ifodalasa, ingliz tilidagi evfemizmlar siyosiy korreklik va neytrallik tamoyillariga asoslangan.

Ingliz va o‘zbek mediadiskursidagi evfemizmlarni uchta asosiy turga ajratish tavsiya etiladi: nominal, nominal-deskriptiv hamda ekspressiv-aksional turlar. Ular tuzilishi (ot, sifat/fe‘l, fe‘l birikmalari), bajaradigan funksiyasi va qo‘llanilish sohasi bo‘yicha farqlanadi.

Nominal evfemizmlar asosan ot shaklida bo‘lib, bevosita atashni yumshatish va ijtimoiy maqbullik yaratish vazifasini bajaradi. Ular ko‘proq ko‘ngilochar dasturlar, kinofilmlar va seriallar matnida ishlatilib, ularning qo‘llanilish ulushi taxminan 56,4 %ni tashkil etadi. Ingliz mediadiskursida bunga *“correctional facility”* (prison o‘rniga), o‘zbek matnlarida esa *“tozalik xodimi”* (farrosh o‘rniga) kabi birliklar misol bo‘la oladi.

Nominal-deskriptiv evfemizmlar sifat yoki fe‘l shaklida ifodalaniib, holat yoki sifatni yumshoq, bilvosita tarzda tavsiflashga xizmat qiladi. Ular ijtimoiy mavzudagi xabarlar, e‘lon va reklama matnlari, shuningdek, sog‘liqni saqlashga oid diskursda nisbatan ko‘proq uchrab, taxminan 62 % ulushni tashkil etadi. Ingliz tilida *“plus-size”* (fat o‘rniga), o‘zbek tilida *“kam ta‘minlangan”* (kambag‘al o‘rniga) kabi birliklar salbiy bahoni yumshatib, adresatni ranjitmaydigan, ijtimoiy maqbul shaklni ta‘minlaydi.

Ekspressiv-aksional evfemizmlar esa fe‘l yoki fe‘l birikmasi shaklida bo‘lib, harakatni oqlash, salbiylikni yashirish yoki fonini yumshatish funksiyasini bajaradi. Ular, ayniqsa, siyosiy va harbiy diskurs hamda yangiliklar matnida faol qo‘llanib, 58,7 % atrofida qayd etiladi. Ingliz tilida *“to conduct a targeted operation”* (to attack o‘rniga), o‘zbek tilida *“hududda vaziyat yomonlashdi”* (to‘qnashuvlar bo‘ldi o‘rniga) kabi birliklar real zo‘ravonlik yoki keskinlikni bilvosita, yumshatilgan shaklda yetkazish orqali auditoriyaning emotsional reaksiyasini jilovlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, mediadiskursda nominal evfemizmlar asosan atashni, nominal-deskriptiv turlar sifat va holatni, ekspressiv-aksional turlar esa harakatni *“bezatib”*, ijtimoiy maqbulroq ko‘rinishda namoyon etadi.

Bobning xulosasi sifatida evfemizmlarning o‘zbek va ingliz mediadiskursida nafaqat leksik-semantik, balki madaniy va kommunikativ jihatdan ham murakkab hodisa ekanligi, ularning shakllanishi jamiyatning ijtimoiy qadriyatlarini, axloqiy

me'yorlari va milliy mentaliteti bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asosda isbotlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek va ingliz mediadiskursidagi evfemizmlar tarjimasining lingvokulturologik masalalari”** deb nomlangan va uch fasldan iborat. Unda mediadiskurs evfemizmlarning chog‘ishtirilayotgan tillararo tarjima muammolari, interferensiya va transpozitsiya hodisalari hamda tarjima strategiyalari chuqur tadqiq etilgan.

Bobning dastlabki faslida **“Ingliz va o‘zbek mediadiskursidagi evfemizmlarning madaniy farqlari va ularning tarjimada saqlanishi masalalari”** tahlil qilingan.

Evfemizmlarning madaniy kontekstdagi farqlari konkret misollar orqali tahlil qilingan. O‘lim evfemizmlari tahlilida ingliz tilidagi *“passed away”* va o‘zbek tilidagi *“olamdan o‘tdi”* ifodalarining madaniy konnotatsiyalari qiyoslangan. Ingliz tilidagi evfemizm sekulyar va emotsional neytral ohangda bo‘lsa, o‘zbek tilidagi evfemizm diniy hurmat va ijtimoiy ehtirom bilan bog‘liq.

Inglizcha *“passed away”* va o‘zbekcha *“olamdan o‘tdi”* evfemizmlari o‘lim hodisasini ifodalashda umumiy yumshatuvchi funksiyaga ega bo‘lsa-da, ularning madaniy va diniy tayanchi sezilarli darajada farqlanadi. *“Passed away”* g‘arb individualizm ruhiga mos ravishda, ko‘proq sekulyar yoki diniy jihatdan betaraf shaklda qo‘llanib, shaxsiy daxlsizlikni saqlash, noqulay vaziyatdan qochish va psixologik ta’sirni yumshatishga xizmat qiladi; uning ohangi hissiy ehtiyotkor, o‘rtacha rasmiy darajada baholanadi.

“Olamdan o‘tdi” ifodasi esa islomiy kollektivizm va taqdirga e’tiqod an’analariga tayanib, o‘limni Alloh taqdiri, oxiratga o‘tish bosqichi sifatida talqin qiladi; bu evfemizm juda rasmiy, hurmatli va ehtiromli ohangga ega bo‘lib, sabr-qanoat va oxiratga bo‘lgan ishonchni aks ettiradi. U jamoaviy motam, marhumga hurmat va umumiy ma’naviy birdamlikni ifodalashga qaratilgan. Har ikki evfemizm tinglovchiga nisbatan yuqori sezuvchanlikni ta’minlasa-da, inglizcha variantda bu asosan shaxsiy noqulaylikdan saqlanish, o‘zbekchada esa jamoaviy qadriyatlarga sodiqlik va diniy-ma’naviy tasalli bilan bog‘liqdir.

Ingliz tilidagi evfemizm individual daxlsizlik va psixologik himoyaga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi evfemizm diniy e’tiqod va jamoaviy g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq. Ingliz tilidagi *“Big C”* va o‘zbek tilidagi *“xavfli o’sma”* evfemizmlari bir xil – saraton kasalligini bevosita aytmaslik maqsadiga xizmat qilsa-da, ularning lingvokulturologik xususiyatlari sezilarli darajada farqlanadi. *“Big C”* alfavitik evfemizm bo‘lib, C harfi orqali muayyan kasallikni bilvosita eslatadi va g‘arbcha individualistik madaniy modelga tayangan holda sog‘liqni, avvalo, shaxsiy sir va daxlsizlik doirasida ko‘radi. Bunda psixologik ehtiyoj – shaxsiy chegarani himoya qilish, hissiy nazoratni saqlashdir; diniy asos, odatda, sekulyar yoki betaraf bo‘lib, kasallik ilohiy sinovdan ko‘ra tibbiy hodisa sifatida qabul qilinadi. OAVda bunday evfemizm sog‘liq mavzusidagi bahslarni yumshatish, auditoriyani ortiqcha qo‘rquv va bezovtalikdan himoya qilish vazifasini bajaradi; ifoda uslubi indirekt, bilvosita ishora orqali hissiy ehtiyotkorlikni ta’minlaydi.

O‘zbek tilidagi “*xavfli o’sma*” esa tavsiflovchi evfemizm bo‘lib, kollektivistik madaniy model bilan bog‘langan: sog‘liq holati ko‘pincha faqat shaxsning emas, oila va jamiyatning umumiy tashvishi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda psixologik ehtiyoj – bemorga nisbatan ijtimoiy rahm-shafqat uyg‘otish, jarayonni ilohiy sinov sifatida qabul qilib, duo va sabr orqali yengish g‘oyasini mustahkamlashdir. Natijada “*xavfli o’sma*” evfemizmi bemorni himoyalash, uning holatini haddan tashqari qo‘rqinchli ko‘rsatmasdan, axloqiy va diniy inoyat nuqtayi nazaridan yondashish vositasiga aylanadi. OAVda u oila va jamiyatga muloyim tarzda murojaat qilish, “*og‘ir tashxis*”ni axloqiy va diniy ehtiyotkorlik bilan yetkazish strategiyasini amalga oshiradi.

Tarjima nuqtayi nazaridan “*Big C*” evfemizmini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “*katta C / katta S*” tarzida berish semantik va madaniy jihatdan nomuvofiq bo‘lib, o‘zbek tilida bu shakl hech qanday barqaror madaniy kod yoki emotsional konnotatsiyani faollashtirmaydi. Shuning uchun tarjimada markaziy o‘rin pragmatik funksiya va madaniy kodga moslikka beriladi: ingliz tilida “*Big C*” saratonni bevosita aytmasdan, suhbatdoshni noqulaylikdan saqlash va hissiy nazoratni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida “*xavfli o’sma*”, zarur holatda “*og‘ir kasal*” kabi variantlar kasallikni ehtiyotkor ifodalash, biroq shu bilan birga ijtimoiy e‘tibor va hamdardlikni saqlashga xizmat qiladi. Bu yerda kommunikativ ekvivalentlik so‘zma-so‘z moslikdan ko‘ra funksional tenglikka asoslanadi: inglizcha evfemizmida shaxsiylik va ehtiyotkorlik, o‘zbekcha variantda esa diniy-axloqiy yumshoqlik va jamoaviy mehr ifodalanadi. Shuning uchun tavsiya etiladigan tarjima yondashuvi so‘zdan ko‘ra, evfemizmning hissiy ohangi va kommunikativ vazifasini saqlaydigan madaniy mos tarjima variantlarini (“*xavfli o’sma*”, “*og‘ir kasallikka chalingan*”) qo‘llashdan iboratdir.

Turmush qurish mavzusidagi evfemizmlar tahlilida ingliz tilidagi “*espouse*” va o‘zbek tilidagi “*turmushga bermoq/chiqmoq*” ifodalarining gender konnotatsiyalari va madaniy asoslari chuqur o‘rganilgan. Bu misollar evfemizmlarning tarjimada madaniy tafovutlarni hisobga olish zarurligini yaqqol ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ingliz mediadiskursidagi “*espouse*” fe‘li va o‘zbek tilidagi “*turmushga chiqmoq / turmushga bermoq*” kabi birliklar nikoh hodisasini ifodalashda umumiy muloyimlik va yumshatuvchi funksiyaga ega bo‘lsa-da, ularning lingvokulturologik asoslari sezilarli darajada farqlanadi. Ingliz tilida “*espouse*” nisbatan neytral, rasmiy ohangdagi birlik bo‘lib, individualistik madaniyat modeli doirasida nikohni shaxsiy tanlov, teng huquqli tomonlar o‘rtasidagi qaror sifatida talqin qiladi; bu yerda subyektivlik, avvalo, shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lib, diniy yoki urf-odatdan ko‘ra sekulyar, erkin ixtiyoriylik tamoyili ustun turadi. O‘zbek tilidagi “*turmushga chiqmoq / turmushga bermoq*” ifodalari esa kollektivistik madaniyatga xos ravishda nikohni jamoaviy, oilaviy jarayon sifatida ko‘rsatadi: “*turmushga bermoq*” modeli oilaviy rozilik, qarindoshlar ishtiroki va ko‘pincha ayol subyektning passiv, “*egasiga topshiriladigan*” obyekt sifatida talqin qilinishini anglatadi; diniy-urfiy va marosimiy asoslar bu birliklarning mazmuniy fonini belgilaydi.

Evfemizm sifatida har ikkala tildagi birliklar nikoh mavzusini ochiq, qo‘pol ifodalardan (*“erga tegmoq”, “uylanmoq”* ning keskinroq variantlari va hokazo) saqlab, muloyim, ijtimoiy maqbul shaklda berishga xizmat qiladi. Biroq ingliz tilida bu, asosan, hissiy neytrallik va rasmiy uslubni ta‘minlashga qaratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida odoblilik, hayo, ijtimoiy maqbullik va an‘anaviy jinsiy rollarni mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli tarjimada *“espouse”* ni avtomatik tarzda *“turmushga chiqmoq / bermoq”* bilan almashtirish har doim ham yetarli emas: tarjimon subyektlik darajasi, gender konnotatsiyalari, diniy-urfiy fon va madaniy modelni hisobga olgan holda funksional jihatdan eng mos ekvivalentni tanlashi lozim bo‘ladi.

Keyingi faslda ***“Mediadiskurs evfemizmlari tarjimasida interferensiya va transpozitsiya”*** hodisalari tadqiq etilgan. Interferensiya tarjimonning ona tilidagi til tizimi va madaniy modelining tarjima tiliga ta‘siri natijasida yuzaga keluvchi lingvistik og‘ish sifatida ta‘riflangan²⁷.

Interferensiyaning turlari aniqlab berilgan: lingvistik interferensiya va madaniy interferensiya. Ingliz tilidagi *“economically disadvantaged”* ifodasining o‘zbek tiliga *“iqtisodiy nochor”* shaklida tarjima qilinishida semantik interferensiya sodir bo‘lishi ko‘rsatilgan. *“Laid off”* ifodasining *“ishdan bo‘shatildi”* deb tarjima qilinishida stilistik interferensiya yuzaga kelishi tahlil qilingan.

Transpozitsiya - tarjima nazariyasida manba til va maqsad til o‘rtasida grammatik yoki sintaktik strukturalarning o‘zaro almashtirilishi orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida izohlangan. J.Vinay va J.Darbelnetning nazariyasiga asoslanib, transpozitsiyaning majburiy, ixtiyoriy va kontekstual turlari ajratilgan²⁸.

Mediaevfemizmlar tarjimasida qo‘llanilgan transpozitsiya turlari orasida leksik-semantik transpozitsiya eng katta ulushni egallaydi; bunda so‘z turkumi saqlangan holda, ma‘no kengayishi yoki yumshoq tavsif bilan berilishi kuzatiladi. Ikkinchi yirik qatlamni grammatik transpozitsiya tashkil etib, unda otning fe‘lga, fe‘lning sifat birikmasiga aylanishi, ya‘ni struktur jihatdan qayta tuzish orqali evfemizmning pragmatik yukini moslashtirish hollari ustunlik qiladi. Nisbatan kamroq ulushga ega bo‘lgan murakkab (aralash) transpozitsiya turlarida esa leksik, grammatik va pragmatik o‘zgarishlar bir vaqtda ro‘y berib, ayniqsa, siyosiy, harbiy va sog‘liqni saqlash diskursida evfemizmning madaniy-kontekstual mazmunini to‘liqroq ko‘chirishga qaratilgan strategiyalar qo‘llanadi.

Mediaevfemizmlarini tarjima qilish jarayonida turli transpozitsiya turlari qo‘llanadi va ular evfemistik mazmunni saqlagan holda til va madaniyatga moslashtirishga xizmat qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *“collateral damage”* birikmasi tinch aholining o‘limi yoki oddiy fuqarolar qurbonlari ma‘nosini bilvosita ifodalovchi nominal evfemizm bo‘lib, o‘zbekchaga *“tasodifiy qurbonlar”* tarzida o‘giriladi. Bu yerda majburiy transpozitsiya sodir bo‘ladi: *“damage”* otining o‘rnini *“qurbonlar”* (aniq ijtimoiy obyekt) egallaydi, *“collateral”* esa *“tasodifiy”* sifatiga aylanadi, biroq evfemistik yumshoqlik saqlanadi.

²⁷ Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1995. – 88-93 p.

²⁸ Vinay J.-P., Darbelnet J. Ko‘rsatilgan manba. – 118-125 p.

O‘zbek matnidagi “*uyida ro‘zg‘or ishlari bilan band*” jumlasini ayolning iqtisodiy faol emasligini “*ishsiz*” deb qo‘pol nomlamasdan, ijtimoiy maqbulroq shaklda ifodalaydi. Inglizchaga “*economically inactive*” yoki “*unemployed due to household duties*” tarzida berilganda ixtiyoriy transpozitsiya yuz beradi: fe‘lli birikma holatga oid status ifodasiga aylanadi va madaniy sezgirlik (gender va ijtimoiy rol) hisobga olinadi. Shunga o‘xshash tarzda, ingliz tilidagi “*senior citizens*” birikmasi katta yoshdagi insonlarni hurmat bilan nomlovchi evfemizm bo‘lib, o‘zbekchaga “*nuroniylar*”, “*nafaqa yoshiga to‘lganlar*” tarzida tarjima qilinadi; bunda otga asoslangan birlik holatga asoslangan konstruksiyaga o‘tkaziladi, ya’ni ixtiyoriy transpozitsiya orqali semantik yadro saqlanib, madaniy moslik ta’minlanadi.

“*Qayta ijtimoiylashayotgan fuqarolar*” birikmasi sobiq mahkumlarni stigmasiz, ijtimoiy inklyuziv tarzda ifodalovchi o‘zbekcha evfemizm bo‘lib, inglizchaga “*rehabilitated individuals*”, “*citizens reintegrating into society*”, “*former offenders*” kabi variantlarda ko‘chiriladi. Bu holatda kontekstual transpozitsiya kuzatiladi: o‘zbekcha fe‘lli jarayon (qayta ijtimoiylashish) ingliz tilida ot birikmasi shakliga o‘tkaziladi va shu bilan birga ijtimoiy tamg‘alash darajasi kamaytiriladi. Umuman, bu misollar mediaevfemizmlar tarjimasida transpozitsiya faqat formal o‘zgarish emas, balki evfemistik mazmun, pragmatik funktsiya va madaniy sezgirlikni uyg‘unlashtiruvchi asosiy mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

Uchinchi faslda “*Mediadiskurs evfemizmlarining tarjima strategiyalari va usullari*” sistemali o‘rganilgan. Uch asosiy tarjima strategiyasi ishlab chiqilgan: *ekvivalentlik, adaptatsiya va tushuntirish (explicitation)*.

Ekvivalentlik strategiyasi R.Yakobsonning nazariyasiga asoslanib tahlil qilingan²⁹. E.A. Nidaning formal va dinamik ekvivalentlik tushunchalari evfemizmlar tarjimasiga tatbiq etilgan³⁰. Ingliz tilidagi “*resource reallocation*”³¹ va “*sanitation engineer*”³² ifodalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishida ekvivalentlik masalalari ko‘rib chiqilgan.

Adaptatsiya strategiyasi S. Bassnettning “madaniy burilish” konsepsiyasiga asoslanib o‘rganilgan³³. Ingliz tilidagi “*pre-emptive strike*” ifodasining “*strategik mudofaa harakati*” shaklidagi adaptatsiyasi, o‘zbek tilidagi “*oilaviy mojarolarni tartibga solish*”³⁴ ifodasining ingliz tiliga “*facilitating family harmony*” tarzida moslashtirilishi chuqur tahlil qilingan.

Tushuntirish (*explicitation*) strategiyasi A.Chestermanning nazariyasiga asoslanib tadqiq etilgan³⁵. Ingliz tilidagi “*a little work done*” va “*adult content*”

²⁹ Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation. – Cambridge: Harvard University Press, 1959. – P. 232-239.

³⁰ Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.

³¹ Samuels J.D., Ho M.S. The Contribution of Reallocation to U.S. GDP Growth: Measurement Using Tiered Aggregation. – Washington: U.S. Bureau of Economic Analysis, 2021. – 13 Oct.

³² Samoskaite L. Linguistic Peculiarities of Euphemisms in Media // New Journal of Linguistics and Translation Studies. – 2011. – P. 155-167.

³³ Bassnett S. Translation Studies [Electronic resource]. – 4th ed. – London: Routledge, 2013. – 208 p. – URL: <https://doi.org/10.4324/9780203488232> (murojaat sanasi: 15.12.2024)

³⁴ Manba: *lex.uz – Milliy Strategiya*, 2022

³⁵ Chesterman A. Memes of Translation: The Spread of Ideas in Translation Theory. – Amsterdam: John Benjamins, 1997. – P. 108-115.

ifodalarining o‘zbek tiliga izohli tarjimasi, o‘zbek tilidagi “*fuqaroga nisbatan xizmat mavqeyini suiiste’mol qilganlik*” va “*axloqiy me’yorlarga zid holat*” evfemizmlarining ingliz tiliga izoh bilan tarjima qilinishi amaliy misollar orqali ko‘rsatilgan.

Har bir strategiyaning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilingan. Ekvivalentlik konnotativ uyg‘unlikni ta’minlasa-da, kulturologik tafovutlar muammosi mavjud. Adaptatsiya madaniy moslikni ta’minlaydi, lekin ma’no yo‘qotilishi xavfi bor. Tushuntirish (explicitation) semantik aniqlikni oshiradi, ammo matnning hajmini kamaytirishi mumkin.

Bobning xulosasi sifatida interferensiya va transpozitsiyaning o‘zaro muvozanatli qo‘llanilishi evfemizmlarning madaniyatlararo adekvat tarjimasini ta’minlashi, ishlab chiqilgan tarjima strategiyalarining differensial modeli (ekvivalentlik, adaptatsiya, tushuntirish) evfemizmlarning turli kontekstlardagi tarjimasiga moslashuvchan yondashuvni berishi ilmiy asosda isbotlangan.

Lingvokulturologik kompetensiya tarjimonlar uchun ajralmas ko‘nikma bo‘lib, madaniyatlararo empatiya, semantik aniqlik va kommunikativ maqbullikni uyg‘unlashtirishga erishish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot asosida ingliz va o‘zbek mediadiskursi o‘rtasidagi madaniy tafovutlarni inobatga olgan holda evfemizm tarjimasi bo‘yicha amaliy tavsiyalar to‘plamini o‘z ichiga olgan elektron dastur yaratilgan.

XULOSA

1. G‘arb va o‘zbek tilshunosligida evfemizmga bo‘lgan nazariy yondashuvlar metodologik jihatdan tubdan farqlanadi. G‘arbiy tilshunoslik maktablarida evfemizm kommunikativ-pragmatik strategiya va ijtimoiy manipulyatsiya vositasi sifatida strukturalistik va kognitiv paradigmalar doirasida tadqiq etiladi. O‘zbek tilshunosligida esa evfemizmlar madaniy ong mahsuli hamda milliy mentalitetning lingvistik ifodasi sifatida tarixiy-etnografik va madaniy-semiotik paradigmalar doirasida o‘rganiladi. G‘arbiy yondashuvlar evfemizmni sinxron lingvistik hodisa sifatida funksional ekvivalentlik mezonlari asosida tahlil qilsa, o‘zbek tilshunosligi uni diaxron madaniy jarayon sifatida axloqiy muvofiqlik va madaniy autentiklik tamoyillari asosida ko‘rib chiqadi. Bu metodologik tafovut evfemizmlarning tarjima strategiyalarini ishlab chiqishda ham o‘z aksini topadi.

2. Evfemizmning lingvokulturologik mohiyati ilk bor o‘zbek va ingliz mediamatnlari misolida chog‘ishtirma o‘rganilib, ushbu hodisa nafaqat semantik yumshatish vositasi, balki milliy madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar ifodasi sifatida talqin qilindi. Bu orqali evfemizm fenomenining madaniy-kognitiv ildizlari va diskursdagi strategik kommunikativ roli ochib berildi.

3. O‘zbek va ingliz tillarida ishlatiladigan evfemik birliklarning milliy-madaniy kontekstlar asosida shakllanishi, ijtimoiy-ta’limiy, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liqligi hamda har bir tilning o‘ziga xos pragmatik mezonlari asosida tanlanishi aniqlab berildi. Bu holat evfemizmlarning diskursiyaviy tafovutlarini tushunish uchun muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

4. Ingliz tilidagi evfemizmlar, asosan, shaxsiy daxlsizlik, siyosiy to'g'rilik va sekulyar qadriyatlar asosida yuzaga kelgan bo'lsa, o'zbek tilidagi evfemizmlar diniy-etnik tafakkur, ijtimoiy murosaviylik, axloqiy andisha asosida shakllangan. Ushbu asosiy farq tarjimada madaniy sezgirlikni ta'minlash muhimligini ko'rsatadi.

5. Mediadiskursda mavjud evfemik birliklar ilk bor nominal, nominal-deskriptiv va ekspressiv-aksional tipologiyalarda ajratilib, har bir turli shakldagi evfemizmnining axborotni yetkazishdagi kommunikativ strategiyasi, lingvokulturologik xususiyatlari, stilistik va semantik yuklamasi tahlil qilindi. Ushbu tasnifning ishlab chiqilishi tilda evfemik birliklarning ijtimoiy-madaniy holatga moslashuvini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

6. Mediaevfemizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan interferensiya va transpozitsiya hodisalari bir-birini to'ldiruvchi, lekin ba'zida qarama-qarshi ta'sir etuvchi lingvopragmatik mexanizmlar sifatida tahlil qilinadi. Interferensiya tarjimada noadekvatlik va semantik xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, transpozitsiya evfemizmlarni madaniy kontekstga moslashtirishga yordam beruvchi strategik vosita sifatida baholanadi.

7. Tarjima jarayonida mediaevfemizmlar uchun qo'llanilayotgan semantik ekvivalentlik, madaniy adaptatsiya, tushuntirish (explicitation) kabi turlari samarali tarjima strategiyalari hisoblanadi. Ularning har biri evfemik ifodaning kommunikativ samaradorligini saqlash yoki tiklash darajasiga ko'ra tahlil qilinadi.

8. Dissertatsiya doirasida o'zbek va ingliz mediamatnlaridan yig'ilgan evfemik birliklarning chog'ishtirma korpusi tuzilib, bu korpus lingvokulturologik izlanishlar, tarjima tahlillari va mediatekstlar diskursini o'rganishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

9. O'zbek tilshunosligida ilgari kam o'rganilgan mediadiskurs evfemizmlarining tarjimaviy-lingvokulturologik xususiyatlari ushbu ishda chuqur tahlil qilinib, til, madaniyat va diskursning o'zaro bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

10. Tadqiqot natijasida tarjimonlar, jurnalistlar va mediamatnlar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun madaniy sezgirlik, axloqiy maqbullik va stilistik uyg'unlikni ta'minlovchi tavsiyalar ishlab chiqildi. Ayniqsa, xalqaro OAV, diplomatik xizmat va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida ishlaydigan mutaxassislar uchun evfemizmlarni to'g'ri qo'llash va tarjima qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar yaratilganligi katta ahamiyatga egadir.

11. Dissertatsiya asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar ko'p tilli kommunikatsiya, sun'iy intellekt asosida matnlarni avtomatik tahlil qilish, evfemizm korpuslari tuzish kabi zamonaviy tilshunoslik sohalarida keyingi izlanishlar uchun metodologik zamin yaratadi.

**THE SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 ON AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES AT KARAKALPAK STATE UNIVERSITY**

NUKUS STATE PEDAGOGICAL INSTITUT

ESHCHANOVA MAVJUDA XUDAYOROVNA

**LINGUOCULTURAL FEATURES OF EUPHEMISMS IN UZBEK AND ENGLISH
MEDIA DISCOURSE.**

10.00.06 - Contrastive Literary criticism, Comparative Linguistics and Translation Studies

**DISSERTATION ABSTRACT of the doctor of philosophy (phd) on PHILOLOGICAL
SCIENCES**

The topic of the Doctor of Philosophy dissertation has been registered by the Higher Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number: B2025.1.PhD/Fil5846.

The dissertation has been completed at Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, and Russian, (summary)) on the website of the Scientific Council (www.karsu.uz) and on the information and educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) is placed.

Scientific supervisor:

Norbayeva Shukurjon Xayitbaevna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Official opponents:

Kaniyazova Jupargul Orinbaevna
Doctor of Philological Sciences, Professor

Norboyev Uktam Saparbayevich,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
Sciences, Professor

Leading organization:

Fergana State University

The defense of the dissertation will take place on «18» March 2026 at 9⁰⁰ at the meeting of the Scientific Council PhD.03/2025.27.12.Fil.04.07 for the award of scientific degrees at Karakalpak State University (Address: 230112, Nukus, Ch. Abdirov Street, 1. Tel: (99861) 223-59-25, Fax: (99861) 223-59-25, Email: karsu_info@edu.uz).

The dissertation can be reviewed in the Information Resource Center of Karakalpak State University (Registration Number: 469). Address: 230112, Nukus, Ch. Abdirov Street, 1. Tel: (99861) 223-59-25.

The abstract of the dissertation will be distributed on «28» February 2026.
(Protocol of the register №. 9 on «27» February 2026).



[Signature]
M.S. Kudaybergenov
Chairman of the Scientific Council on awarding
scientific degrees, Doctor of Philological
Sciences, Professor.

[Signature]
J.E. Seytjanov
Scientific Secretary of the Scientific council on
awarding scientific degrees, Candidate of
Philological Sciences, Professor.

[Signature]
G.A. Kurbanlyazov
Chairman of the Scientific Seminar at the
Scientific Council on awarding Scientific
Degrees, Doctor of Philological Sciences,
Professor.

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

The actuality and necessity of the dissertation topic. In recent years, the strengthening of the anthropocentric approach in world linguistics, the expansion of the information space, and the development of mass communication in its various forms have necessitated the study of the euphemism phenomenon within the framework of new contemporary paradigms. In particular, the fact that the use of euphemistic units within media discourse is directly linked not only to linguistic aesthetics, but also to the system of cultural, moral, religious, and social values in society determines the relevance of this topic. Today, the rapid development of Uzbekistan's information space and the growing importance of word-choice culture on social networks and news platforms are further increasing the demand for research on euphemisms.

As a linguistic phenomenon, euphemism is closely related to numerous factors such as social taboos, moral norms, political correctness, and cultural sensitivity. The way these aspects are reflected in media texts and the adequacy of their translation constitute one of the pressing issues in contemporary linguistics. In particular, a comparative linguoculturological analysis of euphemistic units in English and Uzbek media discourse provides valuable insights into the worldview, value systems, and cultural models of the respective societies. Hence, the present topic occupies a significant place at the intersection of modern linguoculturology, pragmatolinguistics, translation studies, and media linguistics.

The scientific necessity of this research is determined, first, by the need for a systematic analysis of the linguoculturological features of euphemisms in English and Uzbek media discourse; second, by the insufficient scholarly attention to the interrelation of interference and transposition phenomena in the translation of euphemisms and their impact on translation adequacy. Third, in the current context of globalization and transnational information exchange, the elaboration of scientifically grounded strategies for translating euphemistic units while preserving their cultural and communicative equivalence is of particular importance.

Therefore, this research can be recognized as an essential scholarly and practical contribution that serves to ensure the harmony of language and culture within both national and international communication spaces. Indeed, the cultural function of linguistic units disseminated through the media and their accurate and adequate translation into another language represent a crucial factor in maintaining cultural sensitivity in intercultural communication.

This dissertation, to a certain extent, serves the implementation of the goals and objectives set forth in such fundamental documents of the Republic of Uzbekistan as the Action Strategy (Presidential Decree No. PF-4947, February 7, 2017)¹, the Decree “On Increasing the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language” (Presidential Decree No. PF-5850, October 21, 2019),

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабрдаги нутқи / “Халқ сўзи” – 2017 йил, 23 декабрь. № 258.

and the Development Strategy of New Uzbekistan (Presidential Decree No. PF–60, November 28, 2022), as well as other normative acts related to language, culture, and moral values.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The present dissertation research has been carried out in accordance with the Priority Area of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan – “Formation of a system of innovative ideas for the social, legal, economic, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state, and the ways of their implementation.”

Degree of study of the research work. Euphemism is considered one of the widely studied lexical-semantic, stylistic, and cultural-communicative phenomena in world linguistics. Since the second half of the 20th century, the phenomenon of euphemism has been examined not only as a means of semantic mitigation and an enriching factor of vocabulary, but also as a bridge between language and culture. The initial research was conducted by scholars such as G. Hornay, A. A. Reformatsky, B. A. Larin, and L. A. Buakhovsky, who explained euphemisms in direct relation to taboo phenomena².

In the Commonwealth of Independent States, particularly in Russian linguistics, the works of L. P. Krysin on euphemisms are devoted to the analysis of the methods of usage and the social significance of euphemic units in contemporary Russian speech³. In the studies of V.P.Moskvin, E.P.Senichkina, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Yu.S.Baskova and E.O.Miloenko, euphemisms and dysphemisms have been regarded as manipulative tools within media discourse⁴.

In English linguistics, A. M. Katsev, E. O. Miloenko, Yu. S. Baskova, and G. A. Vildanova have studied euphemism within the framework of the principle of politeness in the context of gender and social communication. In particular, G. A. Vildanova’s research entitled “*Euphemia and the Principle of Politeness in Modern English: Gender Aspect*” has played a significant role in analyzing the gender and cultural connotations of euphemism⁵.

In Uzbek linguistics, the issue of euphemism was first systematically studied by N. Ismatullayev, who identified the functional potential of euphemic units in

²² Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. зап. Ленингр. ун-та, № 301: Сер. филол. наук: Вып.№ 60 – Л.: ЛГУ, 1961. – С. 110-124.

³³ Вильданова Г.А. Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект. – Москва-Берлин: Директ-Медиа, 2015. –162 с.

⁴⁴ Крысин Л. П. Эвфемизмы в современной русской речи // www/Philology.ru; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка // Василий Павлович Москвин. 2-е изд. – М.: Ленинград, 2007. – 264 с.; Сеничкина Е. П. Эвфемизмы русского языка. – Москва: Высшая школа, 2006. – 151 с.

⁵⁵ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Ленинград: Наука, 1977. – 65 с. // Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Ленинград: Наука, Ленинградское отд., 1989. – 130 с. // Саакаян Н.Л. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 23 с. // Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ (на материале русского и английского языков): дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 26 с. // Милоенко Е.О. Специфика функционирования эвфемизмов в индивидуальном лексиконе: дисс. ...канд. филол. наук. – Курск, 2009. – 24 с.

the Uzbek language, their relation to taboo, and their semantic features⁶. A. Omonturdiyev, in his scholarly works such as “*The Euphemic Foundations of Uzbek Speech*” and “*Euphemisms of Professional Speech*”, analyzed the stylistic and speech-related aspects of euphemisms and created scientific and practical foundations by compiling euphemic dictionaries⁷.

In the scientific studies conducted by A. E. Mamatov, Z. Kholmanova, and D. Rustamova, the role and influence of euphemistic and dysphemistic expressions in the process of forming phraseological units have been thoroughly examined. In their works, in particular, the euphemistic images and expressions found in the work *Boburnoma* are analyzed, and the relationship of such units to speech culture as well as to socio-emotional components is investigated⁸. Furthermore, the authors have carried out in-depth conceptual analyses concerning the distinctive functional features of euphemisms and their metaphorical character. This scientific approach contributes to the identification of the linguistic and sociocultural foundations of phraseological units and provides a better understanding of the lingual-semantic and pragmatic properties of euphemisms.

In recent years, Sh. K. Gulyamova, in her dissertation, has analyzed the gender characteristics of euphemisms in the Uzbek language, focusing on their formation on the basis of linguoculturological and pragmatic factors⁹.

